


## 99. 4 sonini ko'paytirish va 4 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:  
gazeta va jurnallar

Ko'paytuvchi, ko'paytma.



Bu yerda nechta uchburchak bor?



1. Agar bir oyda gazetaning 4 ta soni chop etilsa, 2 oyda gazetaning nechta soni chop etiladi? Sonli nur chizing va uning yordamida 4 oyda, 7 oyda gazetaning nechta soni chop etilishini topishga yordam bering.



### 4 ga ko'paytirish jadvali

$a$	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$a \cdot 4$	4	8	12	16	20	24	28	32	36	40

2. Ko'paytirish yordamida ifodalang va hisoblang.

$$7 + 7 + 7 + 7$$

$$3 + 3 + 3 + 3$$

$$4 + 4 + 4 + 4 + 4 + 4$$

$$4 + 4 + 4 + 4 + 4 + 4 + 4 + 4$$

3. Kvadratlarning perimetrlarini toping.

5 cm



7 dm



$a$



4. Ifoda tuzing va hisoblang.

Har oy Aziz sinf burchagiga 4 ta yangiliklar varaqasini tayyorlaydi. Aziz o'qishning 9 oyida nechta varaqa tayyorlaydi?

## 99. 4 sonini ko'paytirish va 4 ga ko'paytirish



5. Ko'chirib yozing va bo'sh katakchalarni to'ldiring.

$6 \cdot \square = 24$

$4 \cdot \square = 28$

$2 \cdot \square = 16$

$9 \cdot \square = 27$

$6 \cdot \square = 12$



$5 \cdot \square = 15$



6. Sinf soatida ma'ruza qilish uchun Malika, Lola, Diyora va Dilbar 18 ta yangilikni tayyorlab qo'ydi. Ularning yarmini Malikaning o'zi o'qib berdi, qolgan yangiliklarni uning dugonalari baravardan bo'lib olishdi. Har qaysi qiz nechta yangilik o'qidi?



7. Paletka yordamida har bir burchakning turini aniqlang.



8. Duradgor kitob va gazetalar uchun g'ayrioddiy javon yasadi.

Bu javon qanday geometrik shakllardan tashkil topgan?

Bu yerda nechta uchburchakni topish mumkin?

Paletkadan foydalanib, har bir uchburchakning burchaklarini aniqlang.



9. Tomoni 4 cm bo'lgan kvadrat yasang. Bu kvadratning perimetri va yuzi nimaga teng?



10. Taqqoslang.

$6 \cdot 3 \square 7 \cdot 2$

$16 : 4 \square 18 : 3$

$2 \cdot 4 \square 5 \cdot 4$

$9 \cdot 3 \square 9 \cdot 4$

$20 : 2 \square 40 : 4$

$4 \cdot 7 \square 7 \cdot 3$